




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

ADABIY TILDAGI LAKUNA VA SHEVA LEKSIKASI MUNOSABATI

THE RELATIONSHIP BETWEEN LACUNAE AND DIALECT LEXICON IN LITERARY LANGUAGE

Vaziraxon ALIMBEKOVA,

Toshkent amaliy fanlar universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GFHT1285

Annotation. *This article discusses words that can fill lexical lacunae (gaps) in the literary language based on the internal potential of dialects, as well as the relationship between the literary language and regional dialects.*

Key words: *dialect, lacuna, lexeme, word, speech, literary language, dialect-specific words.*

O'zbek tilining shevalari va o'zbek adabiy tili o'zbek tilining tarkibiy qismi bo'lganligi uchun ham ular umumiy leksika ega. Shu bilan bir qatorda adabiy til va shevalarni bir-biridan ajratib turuvchi o'ziga xos bir qancha xususiyatlari mavjud. Sheva va adabiy til bevosita aloqada bo'ladi, va bu jarayon har ikki til ko'rinishining boyishiga xizmat qiladi. Lakuna atamasi, asosan, bir tildagi so'zning boshqa tilda muqobili bo'lmagan o'rinlarga nisbatan qo'llanadi. "Hozirgi tilshunoslikda lakunalar "leksemasiz sememalar"ga nisbatan ham qo'llanmoqda" [1, 97].

O'zbek adabiy tili va o'zbek shevalarini o'zaro qiyoslab o'rganish jarayonida ko'plab lakuna bo'lgan o'rinlar mavjud ekanligining guvohi bo'lmoqdamiz. Sememani atab keluvchi leksemaning (nomning) mavjud emasligi, so'zlovchi tomonidan tushunchani tinglovchiga so'z birikmasi, ayrim o'rinlarda matn orqali tushuntirish majburiyatini keltirib chiqaradi. Bu nutqiy vaziyatlarda tushunchani ifodalovchi so'z shevalardan adabiy tilga kiritilishi, tilning ifoda ko'lamini oshirishga, lug'at tarkibini boyitishga xizmat qiladi.

Janubi-sharqiy Andijon areali leksikasida yuqoridagi xususiyatlarga ega shevaga xos so'zlar mavjud. Ularni quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz.

Bog'dorchilik mahsuloti bo'lgan turshak, qoqi hatto qish va bahorda (mevalar pishib to'kin-sochin bo'lgunicha) ham kishilarga ozuqa bo'lib xizmat qiladi [2, 246].

Adabiy tilimizda mevalardan tayyorlangan yaxna ichimliklarga nisbatan umumiy sharbat yoki kompot leksemalari qo'llanadi. O'rik mevasining aynan o'zidan emas, balki uning qoqisi (turshagi) qaynatib yoki issiq suvda ivitilib tayyorlangan ichimlik esa adabiy tilimizda *o'rik sharbati* shaklidagi so'z birikmasi orqali ifodalanadi. Janubi-sharqiy Andijon hududida ushbu chanqovbosdi mahsulot **čūli** (chuli) deyiladi (O'XShL, 1971). *Qaqinī qajnatmästän, issiq su:dä dimlansäjäm čūli širin, qajnatkändän körä fajdäli bolädi.* **Qiyos:** yurtimizning ayrim hududlari (Buxoro, Navoiy)da ayni shu tushunchani nomlovchi *g'o'lin* leksemasi ham qo'llanadi [2, 247]. *Chuli* so'zi janubiy Qirg'iziston shevalarida ham shu ma'noda qo'llanadi [3, 146]. O'sh o'zbek shevalarida ea **čöli** (cho'li) shaklida qo'llanadi [4, 165].

Shevalarda aynan o'rik sharbati ma'nosini beruvchi *chuli* leksemasining qo'llanishi uni xalq orasida so'z birikmasi shaklida emas alohida leksema sifatida qo'llanishiga imkoniyat beradi.

yog so'zi shu mazmundagi so'zlar uchun umumiylikni kasb etadi. Shunday ekan xalq orasida bu kabi mahsulotlar paxta o'simligidan olinadigan *yog' paxta yog'i*, kungaboqar o'simligidan olingan *yog' kungaboqar yog'i* singari so'z birikmasi shaklida qo'llanadi. Paxta o'simligidan, aniqrog'i, chigitdan ishlangan *yog'* mahsuloti shevada *āxjāy* (*oxyog'*) [7, 196], *āxmāj* (*oxmoy*) deb yuritiladi [4, 165]. Adabiy tilga shevalardagi paxta *yog'i* mazmunini bildiruvchi ushbu so'zning kiritilishi, nutqiy tejamkorlikni ta'minlaydi. **Qiyos:** Surxondaryo o'zbek shevalarida ham *oxmoy* shaklida qo'llanadi [8, 19].

daxsu (*doxsu*) so'zi janubi-sharqiy Andijon shevasida qaynatilgan suvga nisbatan qo'llanadi. Fikrimizcha, ushbu so'z *yog'*ga nisbatan qo'llanadigan qizdirib yetiltirmoq, *dog'* qilib tozalamoq ma'nosidagi *dog'la* + suv so'zlarining birikuvidan qaynatilgan, pishgan (xom suv emas) mazmunidagi *dog'su* so'zi yasalgan bo'lib, shevalarda fonetik o'zgarish bilan *doxsu* shaklida ham qo'llanadi. **Qiyos:** Buxoro, Qashadaryo shevalarida qaynatilgan suv *objo'sh*, shimoli sharqiy Tojikistondagi o'zbek shevalarida *ābdjāš* (*obdjash*) [8, 56], qipchoq shevalarda *ābdiš* (*abdish*), qarnob shevalarida *ābduš* (*obdush*) [9, 54], Jizzax shevalarida *ābdiš* (*obdish*) shaklida ham qo'llanadi.

kešik (*keshik*) leksemasi o'rganilayotgan shevada *kosada yeb, to'yganidan ortib qolgan ovqat, biror marosim o'tkazilganda mehmonlar kuzatilganidan keyin ortib qolgan noz-u nematlarga* nisbatan qo'llanadi. O'zbek tilining izohli lug'ati bilan tanishganimizda ushbu semani ifodalovchi leksemani uchratmadik. Adabiy til va uning shevalarida yuqoridagi ma'noni ifodalash uchun *qoldiq* so'zidan foydalaniladi. Fikrimizcha, *qoldiq* so'zi, ortib qolgan barcha narsalarning umumiy nomi, qolaversa, salbiy, ya'ni "chiqit, chiqindi" kabi ma'no ottenkalariga ega. Shevalarda ortib qolgan, yeyish uchun yaroqli mazmunidagi *keshik* so'zi, adabiy tildagi *lakuna* bo'lgan o'rinni to'ldirishga, hamda semaning faqat oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan qo'llanishini xususiylashtirishga xizmat qiladi. *Eskilär kešik qāldiriš, eñ jaman adät, Alla: rīsqiñi uzaqlärgä čäčvarädi, činiñi tazäläp qoj deb örgätiškän.* Ma'lumot o'rinda aytish o'rinliki, shevalardagi *keshik* so'zi adabiy tildagi *xonning xos gvardiyasi* mazmunidagi *keshik* so'ziga omonim qo'llanadi. Ma'lumot o'rinda aytib o'tish o'rinliki, ushbu so'z shevaga qirg'iz tilidan o'zlashgan bo'lib, qirg'iz tilida *keshik* ortib qolgan ovqat degan ma'noni bildiradi.

tivit so'zi izohli lug'atda "hayvonlarning nozik va mayin juni; shu jundan to'qilgan, ishlangan mato; shu matodan ishlangan, tikilgan narsa degan ma'nolarni bildiradi" (O'TIL, 5, 303). Tadqiqot ishi olib borilayotgan shevada ushbu so'z paxtali va yungli matolardan tayorlangan kiyimlarni ko'p kiyish natijasida *mayda dumaloqchalar hosil bo'lishiga* nisbatan qo'llanadi. Fe'l ko'rinishida esa *tivitlāšmāq* (*tivitlashmoq*) so'zi ishlatiladi: *tivitlāšip ketkän kijimlāriñi iškä kijmä, kijseñäm erimme tivitlāriñi terip täšäp kij* Ayrim hududlarda *küčüklāšmāq* (*kuchuklashmoq*) so'zi ham shu ma'noda qo'llanadi. Tivit so'zining bu kabi ma'nolari izohli lug'atga kiritilmagan, bu mazmunni ifodalovchi so'z ham adabiy til uchun lakunadir.

qaqamāq (*qaqamoq*) so'zi shevada suyuqlik (*suv, choy, kompot*) ichayotib ko'proq ichib yuborish natijasida yuzaga keladigan holatga nisbatan qo'llanadi.

Adabiy tilda tomoqdan o'tmay to'xtab qolmoq mazmunida **tiqilmoq** so'zi ishlatiladi (O'TIL, 5, 283). Bizning fikrimizcha, ham suyuqlik bo'lmagan oziq ovqat mahsulotlariga (non, olma, sabzi va h.k) hamda suyuqlikka nisbatan ham **tiqilmoq** so'zining qo'llanishi biroz g'alizroqday. Fikrimizcha, *suyuqlikka tiqilmoq* semasini ifodalash uchun shevadagi **qoqamoq** so'zini lug'at tarkibiga kiritish orqali tilimizning ifoda ko'lami kengayadi: *özini bütilkäsida ber südi: häli pijalada içišni bilmedi-dä qaqap ketädi.*

qujqalamāq (quyqalamoq) so'zi, asosan, *qo'y* va sigirning kalla va tuyoqlarini (xolodes va shu kabi yaxna taomlar pishirish uchun), parrandalar so'yilganda (tovuq, kurka) ularning tuklarini kuydirishga nisbatan qo'llanadi. Adabiy tilda ushbu semani ifodalash uchun kuydirmoq so'zi qo'llanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida "o't-olov olmoq; yonib ishdan chiqmoq; yaroqsiz holatga kelmoq" semalarini ifodalovchi kuydirmoq fe'li yuqoridagi holatga nisbatan qo'llansa, tinglovchi bildirmoqchi bo'lgan fikri aniq ifodalay olmaydi. Shu sababli ham shevadagi *quyqalamoq* fe'li adabiy tilga kiritilsa, uning ifoda imkoniyatini kengaytirishga, hamda konkret ma'no anglatishga xizmat qiladi. *yulini pätlärini juli bolip jaxšilap qujqalagin, šündä majdä qolgä kirmägänlärijäm kujip ketädi.* **quyqa** so'zi izohli lug'atda "Suyuqlik va ba'zi zarralardan yig'ilgan cho'kindi; loyqa; bo'tqasimon quyuyq qorishma" deya ifodalangan (O'TIL, 4, 314). **Qiyos:** janubi-sharqiy Andijonga yondosh bo'lgan O'sh, O'zgan hududlarida **quyqalamoq** kuydirmak, jizg'anak qilmoq degan ma'nolarda qo'llanadi [4, 186]. Shimoli-sharqiy Tojikistondagi o'zbek shevalarida **quyqa** kalla go'sht ma'nosini bildiradi [5, 225]. Ma'lumot o'rinda aytib o'tish o'rinliki, qadimgi turkiy tilda *quyqa-teri, quyqala-teridan yunglarni olmoq* ma'osida qo'llangan.

quluq (quluq) so'zi inson *qulog'idan oqadigan sariq suyuqlik* (oltingugurt moddasi)ka nisbatan tadqiqot ishi olib borilayotgan shevada qo'llanadi: *qulayidän quluy aqjāpti dux'tirgä abarip keliš keräk..* Ilmiy adabiyotlar bilan tanishganimizda, adabiy tilda ushbu semani ifodalovchi so'zni uchratmadik. Shevalarda bu holat *qulog'i oqib qolmoq* iborasi bilan ifodalanadi. **Qiyos:** Qo'qon shevalarida **quluq** so'zi *chilimning sarxonasi teshigiga qo'yilgan yumaloq kesakka* nisbatan ishlatiladi [10, 49].

Adabiy til va uning shevalarida miqdorni biror o'lchov idishida ifodalash uchun to'la, yarim mazmunidagi so'zlardan foydalaniladi. Ammo ushbu miqdorning o'rtasini *yarmidan ko'p, lekin to'la bo'lmagan miqdorni* ifodalash uchun so'z mavjud emas. Bunday holatlarda so'zlovchilar bonkaning bo'ynidan, yoki paqirning chizig'idan kabi o'zlari uchun tushunarli bo'lgan biror nuqtani ko'rsatishadi. Janubi-sharqiy Andijon areallarida yuqoridagi semani ifodalash uchun **böskä** (bo'ska) so'zi qo'llanadi: *mästävägä gürüşti činidä böskä sayın, toldir saseñ qojilip ketädi.*

naq arabcha so'z bo'lib "*bor, mavjud, qo'ldagi pul*" kabi ma'nolarni bildiradi. Adabiy tilda va izohli lug'atda "*Aytilganning, ko'zda tutilganning o'zginasi, xuddi ayni; deyarli; rosa obdan; bo'lmasa, aks holda*" kabi ma'nolarda qo'llanadi (O'TIL, 3, 336). Tadqiqot ishi olib borilayotgan shevalarda, deyarli barcha aholining nutqida *sut* so'zi bilan birga qo'llanib adabiy tildagi *qaymog'i olinmagan sut, yog'li sut* semasini berish uchun **naqsut** shakllarida qo'llanadi. Bizning fikrimizcha, bu so'z bosh ma'nodan hosila olib yuzaga kelgan, ya'ni *sof, o'zgartirilmagan, tabiiy holicha boricha mavjud sut* deyilmoqchi. Chunki qaymoq olish uchun *sut* zamonaviy texnologiyalar yordamida qayta ishlanishini (seperatl qilinishini) hammamiz yaxshi bilamiz. Qaymog'i olingandan keyingi (yog'siz *sut*) shevada **abarotsut** (abarotsut) deyiladi. Ushu so'z ruscha *qayta ishlangan* semasini

bildiruvchi *оѣрабатно* soʻzidan yarim kalkalash usulida shevada yasalgan. Shevalardagi *naqsut* soʻzi *yogʻli sut*, *qaymogʻi olinmagan sut*, *abarotsut* (abarotsut) soʻzi *esa yogʻi olingan sut*, *yogʻsiz sut* kabi soʻz birikma shaklidagi birliklarni tilimizda birgina soʻz bilan ifodalash imkonini beradi: *qatıyđı naqsuttān üjit, abarot süttān üjitsāñ aččıy bop qalādi*.

malmāq (molmoq) soʻzi janubi-sharqiy Andijon shevalarida *qaymoq*, *saryogʻ*, *murabbo* kabi mahsulotlarga nisbatan non qoʻshib yeyishga nisbatan qoʻllanadi. Adabiy tilda ushbu semani ifodalash uchun qoʻllanadigan xususiy leksemani topa olmadik, ammo shu mazmunni ifodalash uchun *non* soʻziga *tekkizmoq*, *botirmoq*, *qoʻshmoq* kabi soʻzlar qoʻshib ifodalanadi. *Bügün qajmay azray čıqtı, manavı naniñ bilān bittā malval, mājli köz haqqı, qayānini abetkā čüčvärä qılāmiz*. Maʼlumot sifatida aytish oʻrinliki, oʻzbek tilida *mol* omonimining *botirmoq* semasi yoʻq boʻlsa, qirgʻiz tilida *mol* omonimining *tovar* semasi mavjud emas [11, 18].

Qiyos: Namangan qipchoq shevalarida *motirmoq* shaklida talaffuz qilinadi.

Taʼkidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan, janubi-sharqiy Andijon areallaridagi ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan soʻzlarning adabiy tilda faollashib, meʼyorga aylanishi oʻzbek tilining ifoda imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мусаева Ф. Лакуна ҳодисаси ва уни бартараф етишда шева лексикасининг аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2020, 3-сон. 97-бет.
2. Ҳасанов А. Ўзбек адабий тилидаги лексик бўшлиқларни тўлдиришнинг диалектал асослари. – Тошкент. 2021. – Б 246.
3. Шарипов Ҳ. Жанубий Қирғизистон ўзбек шевалари. – Дисс. – Тошкент. 1967. – Б 146.
4. Фармонов И. Ўзбек тили Ўш-Ўзган диалектининг баъзи лексик хусусиятлари. – Тошкент. 1983. – Б 165.
5. Шералиев Э. Шимолий-шарқий Тожикистон ўзбек шевалари лексикаси. Филол. фанлари номзоди... дис. – Тошкент, 1974. – Б 225.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, G'afur G'ulom. 2022.
7. Узоқов Ҳ. Ўзбек тилининг Жанубий Фарғона шевалари (фонетик, морфологик ва лексик хусусиятлари): Филол. фанлари номзоди дис. – Тошкент, 1966. – Б 196.
8. Раҳимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент. – 1974. – Б 19.
9. Ражабов Н., Валиев М. Ўзбек шевалари лексикасидан материаллар. – Самарқанд. – 1976. – Б 54.
10. Торақулов. О. Қўқон группа шевалари лексикаси. Дисс. – Ташкент. – 1971. – Б 49.
11. Мирзокулов С. Қариндош тиллардан таржима асарлар тилининг лексик-семантик тадқиқи (Т. Қўсимбековнинг “Синган қилич” романи таржимаси асосида). Автореферат. – Тошкент. – 2000. – Б 18.
12. Дарвешов И. Ареал тилшунослик: жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. – Наманган. – 2019. – Б 89.